

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**3/3-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

**3/3-сан 2024**

**июнь**

**Шолкемлестириүшилдер:**

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендирүү Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Маңсет АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ  
Сапардурды АБАЕВ  
Адхамжон АБДУРАШИТОВ  
Хайрулла АЛЯМИНОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхұјжа АЙТБАЕВ  
Интизар АБДИРИМОВА  
Тұлқин АЛЛАЁРОВ  
Мариғжон АХМЕДОВ  
Умида БАҲАДИРОВА  
Фарҳад БАБАШЕВ  
Ботир БОЙМЕТОВ  
Гулзода БОЙМУРОДОВА  
Шахло БОТИРОВА  
Маманазар ДЖУМАЕВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,  
Қазақстан)  
Алишер ЖУМАНОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Холбой ИБРАГИМОВ  
Шохида ИСТАМОВА  
Умида ИБРАГИМОВА  
Лола ИСРОИЛОВА  
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,  
Қазақстан)  
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,  
Қазақстан)  
Меруерт ПАЗЫЛОВА  
Асқарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Захия НАРИМБЕТОВА  
Хушбоқ НОРБҮТАЕВ  
Улфат МАҲКАМОВ

Уролбой МИРСАНОВ  
Сафо МАТЧОН  
Шукурилло МАРДОНОВ  
Камаладин МАТЯКУБОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Раъно ОРИПОВА  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Фурқат РАЖАБОВ  
Муқаддас РАХМАНОВА  
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)  
Дилшода САПАРБАЕВА  
Феруза САПАЕВА  
Зайниддин САНАҚУЛОВ  
Мухаббат САЛАЕВА  
Қаҳхор ТУРСУНОВ  
Амина ТЕМИРБЕКОВА  
Нурзода ТОШЕВА  
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ  
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Вохид КАРАЕВ  
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Тармиза ХУРВАЛИЕВА  
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ  
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ  
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА  
Гавхар ЭШЧАНОВА  
Қонысбай ЮСУПОВ



Nizomxonov S.E. O'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik muommolari .....	551
Alimov S.Kh., Nurmonova E'U., Bakhridinova A.D., Almuratov F.M. The Morse's Lemma and some of its applications .....	558

## БАСЛАЙШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Nagmetova N.M. Baslawish klaslarda tarbiya pánin oqitiwdiň ilimiyyet-metodikalıq tiykarları .....	565
Jumasheva G.X., Ablyakimova R., Haytimbetova Sh.F. Balalarda ilimiyyet dýnya kózqarasti qáliplestirüwdiň social - pedagogikalıq tiykarları .....	570
Халиков А.А., Ортикова Д.М. Ўқитувчининг касбий тайёргарлигига нотиқлик қобилиятининг ахамияти .....	575
Muhammadiyeva F.T. Qadriyatlar nazariyalari asosida bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning tarixiy tahlili .....	581
Azamatova D.Sh., Xolmirzayeva M.A. Maktabgacha yoshdagı bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati .....	585
Shukirullaeva S.A. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish .....	590
Radjapova G.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagı bolalarning ijodiy faoliygini shakllantirish .....	595
Ibragimova M.S. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ nutq madaniyatini shakllantirish .....	600
Қайнарова И.В. Бошланғич синф ўкувчilarinin ўкув - билиш фаолигини ривожлantirişda эвристик таълим ва ижодкорлик .....	605
Sariqboyeva Z.Ya. Bo'lg'usi tarbiyachilarining bolalar adapiyoti bilan ishlashda kitoblardan foydalanishga tayyorligi tushunchasi .....	612
Allayarov M.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismony tarbiya darslarida milliy harakatlari o'yinlardan foydalanishning muhim omillari .....	617
Pirniyazova Sh.O. Boshlang'ich sinflarda nazariy ma'lumotga qiziqish uyg'otish .....	624
Rajabova M.T. Maktabgacha ta'lim yoshdagı bolalarda milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalarining o'rni .....	630
Irisboyeva Yo.O'. Bolalarda to'plam haqidagi g'oyalarni rivojlantirishning o'ziga xosligi .....	636
Tajbenova S.S. "Ona tili" fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida lingvistik kompetensiyaga doir talablar .....	641
Sariqboyeva Z. Maktabgacha ta'lim muassasalarida nasriy va she'riy asarlar ustida ishlashdagi o'ziga xosliklar .....	647
Niyozova M.N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	651
Allayarov M.J. Maktabgacha yoshdagı bolalarning tezlik qobiliyatini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari .....	656
Norbota'yev X. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga oid variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasi .....	661
Irisboyeva Yo.O'. Maktabgacha yoshdagı bolalarning predmetlar miqdorini idrok qilish, esda olib qolish va taqqoslash ko'nikmalarini shakllantirish .....	667
Xudoyberdiyev G.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish .....	673
Ismoilova S.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'atini boyitishda interfaol metodlardan samarali foydalanish .....	679
Berdiyeva M.M., Muratova D.E. Maktabgacha yoshdagı bolalarning rivojlanishida syujetli-rolli o'yinlarning ahamiyati .....	685
Musayev A.Sh. Chaqaloqlar eshitish qobiliyatini tekshirish usullari .....	690
Ishmatova O.S. Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlanishda fonetik ritmikadan foydalanishning dolzarbligi va zarurati .....	699
G'afforova X.Ya., Shamsiddinova D.B. Katta maktabgacha yoshdagı bolalarni steam texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shartlari .....	706
Utegenova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish asoslari .....	713



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARНИ MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI

*Azamatova D.Sh.*

*CHDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi  
Xolmirzayeva M.A.*

*Bekobod shahar 20-sonli MTT tarbiyachisi*

**Tayanch so'zlar:** maktabgacha ta'lim, innovatsiya, kreativlik, innovatsion fikrlash, mustqlif fikrlash, intellektual rivojlanish, innovatsion ta'lim.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, инновации, творчество, инновационное мышление, самостоятельное мышление, интеллектуальное развитие, инновационное образование.

**Key words:** preschool education, innovation, creativity, innovative thinking, independent thinking, intellectual development, innovative education.

Ma'lumki, vatan beshikdan boshlangani kabi, ta'lim-tarbiya ham beshikdanoq, hattoki, bola tug'ilmasidanoq berila boshlanishi kelajakdag'i ijobjiy natijalarga sabab bo'ladi.

Mamlakatimiz yoshlariga erta ta'lim tarbiya berishning hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z zimmasiga mas'uliyatini olgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bilimlarni berish shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonetik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan birga bir qatorda, undagi psichologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi.

Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani mакtabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi.

MTT tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lislari kerak, bunda ular MTTda ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va



aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lif olish darajasiga yetadi.

Ammo ba'zi oilalar va bog'chada mакtabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdano'tishadi vao'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaningo'yinqaroqligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning mакtabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalaro'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnni topa olmaydilar.

MTT bolasi kun bo'yi tuzilishi va mazmuni qiziq boigan turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Bola asosan,o'z xohishi bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Maktabda esa kunning birinchi qismini tartibli (sistemali)o'qitish egallaydi, bun-dan tashqari kunning ikkinchi qismida ham maMum vaqtini darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bolao'z xohishi va qiziqishi bilan tanlagan mashg'ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maklabga vaqtida kelishi,o'quv qurollarini olib kelishi, maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tanaffusda esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak boladi.

Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish uchun bola eng avval sog'lom, jismoniy chiniqqan va chidamli bo'lishi kerak. Sistemali ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uchta fan (o'qish, yozuv va matematika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida ma'lum tasavvur bilan mакtabga kelishi kerak. Bolaning o'quv materialni o'zlashtirishi va ta'limning bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darjasи, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya'ni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim bolmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o'rganishi kerak. Bola zehnli, ziyrak, topqir, mustaqil boiishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo boiadi.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishiga bog'liq boladi.



Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o‘rnida ham o‘zgarishlar sodir bo’ladi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o‘tadi.

Oldingi jamoada bola o‘zining huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bolao‘zini boshidan ko‘rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o‘qish bolib qoladi.

Maktabda uzoq muddat ota-onalik g‘amxo‘rligisiz bo‘lgani sababli, bola o‘z yoshiga mos his-tuyg‘u va iroda mustahkamligiga ega bo‘lishi, o‘z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o‘quvchi o‘qishga ijobjiy yondashsa, o‘qishni xohlab, intilsa, ta’limdagiligi boshlang‘ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bolish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobjiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi. Bolaning maktabga umumiyligi tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg‘uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o‘zlashtirmaslikning sabablaridan bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o‘quv fanlarning (o‘qish, yozuv, matematika) mazmunini o‘zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Masalan, matematikani o‘qitishda o‘qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o‘rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to‘g‘ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko‘nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiyligi va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o‘zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiyligi tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishda ma’lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo‘naltirish berishga alohida e’tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o‘qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har tarafimma shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar



qo‘llanilmasa, rivojlanish to‘xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og‘ir kechadi.

7 yosh-bola yangi sharoitga tez o‘rganadigan va o‘qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A. Kamenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun mактабда o‘qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta’lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarada tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

Maktabga tayyor bo‘lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, u o‘zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi.

Bola bilimiining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagи voqeа -hodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalami to‘g‘ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o‘z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko‘rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6-7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o‘zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko‘nikmalari o‘z tengdoshlari bilan munosabatlar o‘rnatishiga yordam beradi.

Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o‘rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e’tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e’tibor ajratishsa, uning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratib berishsa, yordam berishsa, o‘qishdan qolgan muhlat ijobiy natija beradi.

Y.A. Kamenskiy o‘zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma’lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o‘ylab, o‘z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko‘rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o‘z tengdoshlari bilan o‘qigan va o‘ynaganda xursandchilik hissini tug‘dirish.
2. Bolalarga maktabdagi ta’limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.
3. Bolalarda bo‘lajak o‘qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda? Ota-onalarning ko‘philigi maktabda yaxshi o‘qishning shartlaridan biri shaxsning



умумиј rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg‘ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rviojlantirishga harakat qildilar. Keyingi o‘ringa bolaning o‘qish va yozish malakalarini rivojlantrishni qo‘yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o‘yinlar o‘ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug‘ullantirishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Jalolova G. «Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish». - T.:2004.
2. K.Nizomova “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish.” T.: 2006.
3. Sh.Shodmonova. «Maktabgacha ta’lim pedagogikasi». T., «Fan va texnologiya» 2008 y.
4. M.Rasulova, D.Abdullayeva, S.Oxunjonova, «Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi» T., 2004 yil. 3-4 betlar.
5. X. Axmedova va boshqa. «Bolangiz maktabga tayyormi?» T., 2000y. 9- bet.
6. O.U.Xasanboyeva va boshqalar. «Maktabgacha ta’lim pedagogikasi». T., «Ilm ziyo» 2006.
7. Э.Т.Недопекина, А.В.Никольская «Maktab bo‘sag‘asida» «O‘qituvchi»T.,1971y.
8. Bolalarni maktabga tayyorlash daftari. Rasulova.M.Sh., Jalolova.G.Q.tarjimasi. T., O‘z PFITI, 1995. 14-bet.

#### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagи bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning ahamiyati, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o‘rganish uchun bola eng avval sog‘lom, jismoniy chiniqqa va chidamli bo‘lishi kerakligida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘rni va ahamiyati bayon qilinadi.

#### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье описывается важность подготовки дошкольников к школьному обучению, роль и значение организаций дошкольного образования в том, что ребенок в первую очередь должен быть здоровым, физически подготовленным и выносливым, чтобы физически и умственно подготовиться к школьной жизни.

#### **SUMMARY**

This article describes the importance of preparing preschool children for school education, the role and importance of preschool education organizations in the fact that a child must first be healthy, physically fit and resilient in order to learn physically and mentally for school life.